

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar 835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi 838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari 841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition 847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati 850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent 854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari 857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi 862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar 868

ILMIY AXBOROT**Z.V.Alimova, M.A.Usmanova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar
va forsiy izofa haqida 871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultoning "Ozod" romanida intertekstuallik 876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni 880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi 884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari 887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida 890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri 894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi 899

Q.V.Yo'lichev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida
ironiyaning o'rni 903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq
leksemalar xususida 907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponomislarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida) 913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar 918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi 922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi 927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishiqlik 930

I.T.Axmадjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari 936



УО'К: 821.512.133.09-319

AVTOBIOGRAFIK QISSALARDA BOLA OBRAZI**ОБРАЗ ДЕТЕЙ В АВТОБИОГРАФИЧЕСКИХ ПОВЕСТЕЙ****IMAGE OF CHILDREN IN AUTOBIOGRAPHIC NARRATIVES****Umurzakov Rustamjon Maxamadovich** 

Farg'onan davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada bola obrazi yetakchi bo'lgan avtobiografik xarakterdagi qissalar tahlilga tortilgan. Tahlillarga ko'ra avtobiografik va avtobiografik xarakterdagi qissalar bir-biridan farqlanishi aniqlangan. Bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalar avtobiografik unsurlardan holi bo'imasligi ilmiy isbotlashga harakat qilingan. Maqolada biografik va psixobiografik metodlardan foqdalanolgan.

Аннотация

В статье анализируются автобиографические повести. Исследуется индивидуализация как обобщенное выражение образа, анализируются как обобщенные так и своеобразные стороны явления. Изучаются такие элементы изображения как характеристика автора, портрет, художественный психологизм, речь персонажа, которые являются средствами обеспечения живости художественного образа. В художественной литературе описание образа ребёнка и детства трактуется как один из вечных и важных художественных образов, он ассоциируется с символом духовной чистоты, благодеяния, искренности, а также считается общей концепцией художественного произведения.

Abstract

This article provides a theoretical analysis of the artistic image and its nature. The manifestation of the image as an individualized generalization, in which things and events are a combination of particular features with the general aspects of the event, is explored. As tool that ensure the vitality of the artistic image, such elements of the image as the author's description, portraiture, artistic psychologism and characteristic speech are studied.

Kalit so'zlar: avtobiografik qissa, avtobiografik xarakterdagi qissa, bola obrazi, davr, qahramon, prototip.

Ключевые слова: автобиографический повесть, художественный образ, образ ребёнка, типичный образ, прототип, виды образа, психогенетическая теория, социогенетическая теория, возрастная психология.

Key words: narratives, artistic image, child image, typical image, prototype, types of image, psychogenetic theory soicogenetic theory, youth psychology.

KIRISH

Adabiyotshunoslar fikricha, XX asr jahon adabiyotida drama, roman, qissa, hikoya singari janrlar asosiy o'rinni egalladi. O'quvchining epiklikka, falsafiy mushohada yuritishga moyilligi, qahramon ichki dunyosi, psixologiyasi va orzu-o'ylari bilan qiziqish ana shu janrlarda ko'plab asarlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Yozuvchi va o'quvchi qalbidagi bu intilishlar qarama-qarshiliklar asrida bolalikka – beg'uborlikka qaytish motivining kuchayishi bilan ham izohlanadi. Tadqiqotimizning birinchi bobida xulosa qilganimizdek, bolalik mavzusi ijod ahlini qadimdan qiziqtirib kelgan. Insonni o'zgartirishga ishonch paydo bo'lgan Ilk Uyg'onish davridan boshlab, bolalik mavzusiga e'tibor kuchaygan. U o'zbek mumtoz adabiyotida fragmental xususiyat kasb etib, shaxs shakllanishidagi bosqich sifatida qaralgan bo'lsa, XVII asrdan boshlab badiiy ifoda predmetiga aylana boshladi. Rus tadqiqotchisi Y.Shestakovaning fikricha, XIX asrning 2-yarmidan boshlab qahramonning yoshligiga badiiy tasvirning jiddiy obyekti sifatida qaraldi. Darhaqiqat, XX asrga kelib, bolalik mavzusiga qiziqish yana ham ortdi. Insonni bolalikdan boshlab tarbiya qilish lozimligi, bolalik kelajakning poydevori ekanligiga yanada jiddiy qarala boshlandi. Bu davrda ko'plab so'z san'atkorlari uchun bolalik hayot ramziga aylandi va chuqur ma'no kasb etdi. Bu ma'noni anglash orqali inson imkoniyatlari yana ham yordiqinroq ochilishi isbotlandi.

Rivojlangan bolalik statusini yoqlab chiqqan XX asr mutafakkirlari bolaning shakllanish jarayonini nafaqat tarixiy hodisa, balki uning zaminida insoniyat madaniyati rivojlanishidagi izchillik va olg'a intilish tamoyillarini alohida fenomen sifatida ham ko'rib chiqadilar. XX asrdagi bola obrazlari o'zgarayotgan vaqt makoniga uzviy kiritilgan tarix subyekti, u tarixni yaratuvchi va o'z boshidan kechiruvchi, shuningdek, ushbu jaravonda o'zini amalqa oshiruvchi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nega aynan XX asrda yozuvchilar bola obraziga ko'proq murojaat eta boshladilar? Nega yozuvchi badiiy-estetik maqsadini amalga oshirishda aynan bola obrazini tanlay boshladi? Buni muayyan yozuvchining bolalikdagi orzusiga erisha olmagani bilan izohlash mumkin. Uning muhitdan, jamiyatdan o'chi bo'ladi. Endi u badiiy bola bo'lib qayta tug'iladi. Obraz vositasida orzulariga yetadi yoki badiiy bolani qurban qilib, jamiyatdan o'ch oladi. Inson orzularining eng oliysi bu bolalikdagi orzu hisoblanadi. Shuning uchun ham Jan Pol Sartr "eng baxtli odam – bolalikdagi orzusiga yetishgan odamdir", deydi. Bolalikda boy berilgan orzu eng katta armonga aylanadi. Bu hayotni boy berish bilan barobar.

XX asr yozuvchilari uchun bolaga jamiyatning mukammal emasligidan azob chekayotgan jabrdiyda, kattalar muhitining qurboni sifatida qarash tipik hisoblanadi. Bu davr yozuvchilari uchun bolalik kattalar dunyosining illat va kulfatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zguga aylangan.

Bugunga qadar adabiyotshunosligimizda qissachiligidan oid bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin ularning hech birida, ayrim fikr va boblarni hisobga olmaganda, bola obrazni davr va ruhiyat nuqtai nazaridan monografik planda maxsus tadqiq etilmagan.

Zamonaviy qissachiligidan tom ma'noda XX asrda shakllandi. Bunday zamonaviy qissalarni birlashtiruvchi umumiy xususiyat sifatida ularda biografik elementlarning ko'proq qamrab olinishi tushuniladi. XX asrda o'zining yangi bosqichiga ko'tarila boshlagan o'zbek nasrida qissaning o'rni muhimdir. Bu davrga kelib qissachilikda bir talay ishlar amalga oshirildi. Yangi asr qissalarida ijtimoiy-psixologik tasvir yetakchi bo'lganini ko'rsatish lozim. F.f.d. A.Xolmurodovning ta'kidlashicha, XX asr qissachiligi transformatsiya orqali rivojlandi. Asr boshlarida shuning uchun ham mumtoz an'anaviy qissachilikdan chekinildi. Bu – obyektiv omil. Subyektiv omil esa, ijodkorning dunyoqarashidir. Bu asrda butun nasrimizda filtratsiya jarayoni kechdi. Qissachilik ham shu asosda rivojlandi va 30-yillarga kelib, ko'tarilish davri boshlandi. Bu davrda kollektivlashtirish, qulqlar o'tmishini ko'rsatish kuchaydi. 40-yillarda Vatan mudofaasi, 50-yillarda mamlakatni tiklash masalalari birinchi planga olib chiqilgan bo'lsa, 70-80-yillarda yangi to'lqin sezildi. Bu davr qissachilikda buriish davri bo'ldi. Milliylikka intilish kuchaydi, bu esa inson obrazini qalbi, ruhiyati bilan tasvirlash imkonini berdi. Shuning uchun bu davrda qissa janri "hukmron" bo'ldi. Davr nuqtai nazaridan o'zbek qissachiligi shu asosda rivojlandi. Undagi psixologizm esa, asosan 70-80-yillarda inson ichki olamini keng tasvirlash orqali ta'minlandi. Biroq chin san'atkor adiblarimiz har qanday sharoitda ham o'z badiiy-estetik maqsadlarini badiiy psixologizm vositasida amalga oshira olganlarini, siyosiy tazyiq ostida ham badiiy so'z orqali bola timsolida erk va ozodlik obrazlarini yaratib, humor vositasida davr fojialari ustidan badiiy hukm chiqorganliklarini ta'kidlash joiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek adabiyotida bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalar asosan 60-80-yillarda yaratilgan bo'lib, ularda XX asrning 10-20-yillari, 40-50-yillar va 80-90-yillar voqealari tasvirlangan. Voqelikni badiiy idrok etish va ifodalash usuliga ko'ra bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalar rang-baranglikka ega. Ularni qissa nomi ostida umumiylilik birlashtirib tursa-da, ichki bo'linish asosida nazariy jihatdan bir qancha turlarga tasniflab o'rganish mumkin. Tadqiqot davomida o'rganib chiqilgan, bola obrazi yetakchi bo'lgan, umumiy qissa nomi ostida nashr etilgan asarlarni avtobiografik qissa, biografik qissa (Oybek "Bola Alisher"), tarixiy qissa (Matyoqub Qo'shjonov "Dagish"), sehrli-fantastik qissa (Turob Maqsud "Pariga oshiq o'smir"), afsona qissa (Pirimqul Qodirov "Najot"), voqeiy qissa (Tohir Malik "Alvido, bolalik"), hikoyalari turkumidan iborat qissa (Pirimqul Qodirov "Akramning sarguzashtlari"), yumoristik qissa (Pirimqul qodirov "Yayra institutga kirmoqchi"), satirik qissa (O'tkir Hoshimov "Ikki karra ikki – besh") va sarguzasht qissa (Abdulla Qahhor "O'tmishdan ertaklar") kabi ichki turlarga bo'lib, tahlil qilish mumkin. Lekin bu bo'linish nisbiy bo'lib, janr masalasiga oid tadqiqotlarda alohida o'rganish talab etiladi.

ILMIY AXBOROT

Sanab o'tilganlar ichida avtobiografik qissa yetakchilik qiladi. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da ta'riflanishicha, avtobiografik asar – muallifning o'z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o'z hayotini qaytadan yashab ko'radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. Bu janrning eng ko'p tarqalgan turi avtobiografik qissa hisoblanadi. Avtobiografik qissalarda, asosan, muallifning bolalik yillari tasvirlanadi. Shu bilan birga, bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalarda avtobiografik ruh ustunlik qiladi. Bunga bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, davr va mafkura taqozosи bilan XX asr yozuvchilari (ayniqsa, asr boshida tug'ilgan ijodkorlar) inqilobdan avvalgi "qoloq, nursiz" davrni tasvirlash uchun o'zlarining bolalik yillariga murojaat qilgan bo'lsalar, ikkinchidan, asar markaziga bola obrazining qo'yilishi muallifning beixtiyor o'z bolalik yillari xotiralariga suyanishga majbur qildi. O'tgan asr qissalari ichida garchi mualliflarning o'zları e'tirof etmagan bo'lsalar-da, Mo'minjon Muhammadjonovning "Turush urinishlari", Sadriddin Ayniuning "Eski maktab", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Yo'lmirza Oymirzayevning "Baxt beshigi" ("Yetimning yuragi"), Matyoqub Qo'shjonovning "Dagish", Nosir Fozilovning "Saraton" qissalarini avtobiografik qissa sifatida o'rganish mumkin.

Shu o'rinda avtobiografik xarakterdagi ijod bilan san'at o'rtasidagi farqni e'tiborga olish lozim. Avtobiografik asarda muallif obrazi ikkinchi bor reallahsganda o'zida tanlashni, umumlashtirishni aks ettirishini unutmaslik kerak. Avtobiografik faktlardan kuchsiz nusxa yuzaga keladi, u san'at asari bo'lisi uchun qayta ishlanishi, badiylashishi talab etiladi. Muallif tasvirlanayotgan xotira va kechinmalarni o'z shaxsidan ajratishi va ularni obyektivlashtirishi, ya'ni o'zini voqealar ishtiroychisi emas, xolis kuzatuvchi sifatida tutishi kerak. Shundagina asar kitobxonda muallif hayotining qayta bayoni, degan tasavvur uyg'otmaydi. Demak, avtobiografik asarda tasvirlangan qahramon bilan hayotdagi muallif-inson o'rtasida katta farq bor. Garchi "Bolalik"dagi Musa, "O'tmishdan ertaklar"dagi Abdulla obrazlari asosida Oybek, Qahhorlarning avtobiografiyalari yotsa ham, ularni Oybek – muallif, Qahhor – muallif bilan aralashdirib yubormaslik lozim.

Adabiyotshunoslikda, xususan, biografik metod nazariyasida har qanday badiiy asar ijodkor qalbi modelidir, degan qarash bor. Tadqiqotimiz yo'nalishi nuqtai nazaridan ushbu nazariyani yana ham konkretlashtirib aytish mumkinki, har qanday bola obrazi yetakchi bo'lgan qissa avtobiografiklikdan holi bo'la olmaydi. Chunki bolalik tasviri va bola obraziga har bir ijodkor bu davrni yashab bo'lgach, ma'lum davriy masofani bosib o'tgandan so'ng murojaat etadi. Negaki, normal kechmagan bolalik, yoshlikda to'la qondirilmagan istak-mayllar ijodkorga tinchlik bermaydi. Natijada u bola obrazi orqali ikkinchi bolalik davrini qayta yaratadi. Shuning uchun ham bir qancha bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalar, jumladan, o'zbek adabiyotidagi "Shum bola" qissasini ham avtobiografik qissa deb ataguvchilar (H.Yoqubov, A.Abrorov) topiladi. Buning uchun ma'lum asoslar bor, albatta.

Avtobiografik qissa muallifi biografik qissa muallifi kabi arxiv va tarixiy hujjatlarga emas, o'z qalb shuuri, o'tmishi, xotirasi sahifalariga murojaat etadi. Ayniqsa, u bolaligiga murojaat etganda boshdan kechirgan ruhiy hayajonlarni yoritadi. "Biografik qissa esa, bir inson hayotining hujjatlar bilan tasdiqlangan haqqoniy tarixi bo'lib, unda hayotdan olingan hikoyalarga sayqal beriladi va muallif tomonidan chinakam badiiy asar darajasiga ko'tariladi". Shuningdek, o'zining tabiatiga ko'ra materialni qamrab olishi jihatidan biografik qissaga tarixiy qissa juda yaqin turadi. Oybekning Alisher Navoiy bolaligiga bag'ishlangan "Bola Alisher" asari biografik qissa hisoblanadi.

XULOSA

Demak, avtobiografik asar bilan avtobiografik xarakterdagi asarlarni ham farqlab o'rganish lozim. Shu jumladan, G'afur G'ulomning "Shum bola" asari avtobiografik xarakterdagi qissa hisoblanadi. Umuman, avtobiografik, biografik va bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalarda avtobiografiklik unsurlari yetakchi o'rinn tutishini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арасту. Пoэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.:Янги аср авлоди, 2011. – Б. 20. (Aristotle. Poetics. His morals are great. Rhetoric. - T.: New age generation, 2011. - P. 20.)
2. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 8. (Sarimsakov B. Fundamentals and criteria of art. - Tashkent, 2004. - P. 8.)

3. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: “Навоий университети” нашриёти, 2018. – Б. 89. (Kuronov D. Basics of literary theory. - T.: "Navoi University" publishing house, 2018. - P. 89.)
4. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. –Т.:Академнашр, 2010. (Kuronov D. and others. Dictionary of literary studies. - T.: Akademnashr, 2010.)
5. Голсуюрси Ж. Адабиётда характер яратиш // Жаҳон адиллари адабиёт ҳақида. – Т.:Маънавият, 2010. –Б. 95. (Golsuorsi J. Creating a character in literature // Writers of the world about literature. - T.: Spirituality, 2010. -P. 95.)
6. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative “Saraton” by N. Fozilov. Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 104-105.
7. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY “TWICE TWO IS FIVE”. Journal of Central Asian Social Studies, 2(02), 26-35.